

**G'afur G'ulom maktublarida ijodkorning adabiy-estetik qarashlari:****Maktublarda shoirning insho san'ati****Sherzod Isakulov**

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada ijodkorning hozirgi zamon tanqidchiligida ham, G'afur G'ulomshunoslikda ham deyarli e'tibor berilmay kelingan 70 dan ziyod maktublarini o'rganish orqali shoirning adabiy-estetik qarashlari, asarlarining til xususiyati va maktublarning adabiyotshunoslikda tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Insonparvar, saxiy va mehribon insonning ulkan qalbini namoyon etuvchi, shoir qalamidan to'kilgan satrlar sifatida tarix sahifalarida muhrlanib qolgan xatlarning qimmatli manba ekanligi xususida misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Maktubot janri, yozuvchining adabiy-estetik qarashlari, adabiy tanqid, munaqqid, munazara, badiiyat va uslub.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida yozuvchi va faylasuf shoir G'.G'ulomning maktublari alohida o'rin tutadi. Bu yozishmalarda samimiylik, kuyunchaklik, adabiy jarayonga masullik va yosh ijodkorlarga ustozlik mehri sezilib turadi. Qolaversa, xatdagi tasvir uslubining bir-biriga uyg'unligi, fikrning mazmunli, izchil va ta'sirchan bayoni diqqatga molikdir.

G'.G'ulom ijodi haqida juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, uning munaqqidlik faoliyati, uslubi, adabiy tanqidchilik janrlarini rivojlantirishdagi xizmatlari hanuzgacha alohida holda o'rganilmagan. Holbuki, yozuvchining adabiy-ilmiy merosini bugungi kun nuqtayi nazaridan qarab chiqish, ijodkor shaxsiyatiga haqqoniy baho berish ehtiyoji tug'ildi. Shu bois G'.G'ulomning adabiy-tanqidiy qarashlarini jamlagan xazinaning matniy-strukturaviy jihatlari, badiiyati, tili, uslubi kabi muammolarini alohida



olib o'rganish zaruriyati tobora chuqurroq sezilmoqda. Yozuvchining maktublari haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin.

Shoirning hozirgi zamon tanqidchiligida ham, G'afur G'ulomshunoslikda ham deyarli e'tibor berilmay kelingan 70 dan ziyod maktublari bo'lib, 40 tasi shoir asarlari o'n jildligining 10-tomidan o'rin olgan. Bu maktublarni mazmun-mundarijasiga ko'ra quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Shoirning yaqinlari, qarindoshlariga yozgan xatlari (Bahri G'ulomovaga, Ulug' G'ulomovga v.h.).
2. G'.G'ulomning ijodkor do'stlariga yozgan maktublari (A.Lohutiya, Ulfatga, Sobir Abdullaga, Asqad Muxtoraga, Sotim Ulug'zodaga, Mirzo Tursunzodaga, Hamid G'ulomga v.h.).
3. Adabiyotshunos olimlar va jurnalistlarga yozilgan maktublar (V.Mirzayevga, A.Shorahmedovga, V.Ro'zimatovga v.h.).
4. O'quvchilar va yosh gazetxonlarga yo'llangan maktublar.
5. Rassomlar, olimlar, turli kasb-hunar egalari, dehqonlarga yozilgan xatlar. (masalan: farg'onalik dehqonlarga).
6. Qardosh xalqlar vakillariga yozilgan maktublar (tojik, turkman, ozarbayjon, qozoq, ukrain v.h.)

Bunday guruhlash shuni ko'rsatadiki, xatlarning barchasi turli munosabat bilan turfa kishilarga yozilgan, ba'zilar juda qisqa, ba'zilar she'riy shaklda, baribir, hammasi G'.G'ulomning ijodiy va insoniy qiyofasini yorqinroq ochib berishda ma'lum ahamiyatga ega. Muhimi shundaki, ular alloma, insonparvar, saxiy va mehribon insonning ulkan qalbini namoyon etuvchi, shoir qalamidan to'kilgan satrlar sifatida tarix sahifalarida muhrlanib qolgandir. Maktublarni diqqat bilan o'qib chiqsangiz, ko'z oldingizda qalbi qaynoq, mehr-saxovatga to'la jonkuyar inson gavdalanadi.

Ma'lumki, maktub ma'lum tartibli, qat'iy tuzilishga yozishmadir. Xatning qurilishi o'zining ma'lum yo'nalish nuqtasiga ega bo'lib, uning markazini muallif ifodalamoqchi bo'lgan bosh g'oya tashkil etadi.



Xatda bosh g'oyaviy maqsad- kompozitsion nuqta(markaz) aniq belgilangandan keyin muallif o'z fikr-tuyg'ularini shu yo'nalish asosida erkin bayon qiladi. Xatda ham boshlanma, tugun, yechim, xotima kabi syujet chiziqlari mavjud bo'ladi. Unda muallif fikri

- 1) murojaat (boshlanma),
- 2) alangali nutq,
- 3) xat yo'llangan kishi bilan munozara,
- 4) aniq manzaralar chizish,
- 5) detallardan foydalanish,
- 6) lirik chekinish,
- 7) turli badiiy vositalardan foydalanish,
- 8) xotima yo'nalishidagi izchillikda ifodalanadi¹.

Adabiy-tanqidiy maktublarda qiyoslash ko'p. Bu xatlardagi kompozitsion bo'laklar hisoblanadi. Albatta, bunday unsurlarning barchasi bir xat doirasida uchramasligi mumkin. Ammo muallifning bu vositalardan unumli foydalanishi xatning badiiy ta'sirchanlik quvvatini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan ikki adabiy-tanqidiy maktubning tuzilishini ko'rib o'tish mumkin. Birinchisi - G'afur G'ulomning «Yosh shoir Amin Umariyga o'rtoqlik xati» bo'lib, xat shoirning uch she'ri gazetada bosilishi munosabati bilan yozilgan. Yosh shoir ijodiga baho berish va shu orqali uning nuqsonlarini ko'rsatish- xatning bosh g'oyasi hisoblanadi.

Xatning birinchi qismida murojaat, ya'ni tanqidchilarning ozchiligi, hamma asarlarga ulgura olmasligi (holbuki, tanqidchilik har bir asarga o'z munosabatini bildirishi kerak, bunga tanqidchilik aybini xaspo'shlayotgan shoirning buyuk qalbi ham ko'rinib turibdi), tajribalarni o'rtoqlashish, «bir o'rtoq sifati bilan koyish» maqsad qilib qo'yilgan.

¹ Sh.Ahmedova. “Maktubot va adabiy tanqid”. Toshkent “FAN” nashriyoti.



Xatning ikkinchi qismida shoir she'riyatini tahlil qilish orqali uning mohiyati ochib beriladi, keyin Yana murojaatdan foydalaniladi. Bu ikki qism bir-birini to'ldirib, dalillab, xatdagi pafosni kuchaytirib boradi.

G'afur G'ulom xatda shoir she'rlaridan misol keltirib, kitobxonning diqqatini mazmunga jalb qiladi. «Ikki yoshlik» she'rini tahlil qilar ekan, G'.G'ulom mazmunni yanada oydinlashtirish uchun turk shoiri Tavfiq Fikratbekning bir bayt she'rini ham misol tariqasida keltiradi.

«Do'stim Aminjon!, -deb xitob qiladi G'.G'ulom.-Bu she'ringiz syujet jihatdan yaxshi. Lekin anchagina jiddiy kamchiliklarga ham egadir». Shundan keyin xatning uchinchi qismi boshlanadi: Munaqqid shoirning kamchiliklarini, birma-bir dalillab ochib bera boshlaydi, bosh g'oya kuchliroq, ta'sirliroq talqin etiladi.

G'.G'ulom she'rning o'ziga yoqqan va yoqmagan tomonlarini xat egasiga-shoir A.Umariyga yotig'i bilan tushuntirib beradi. Ba'zida l i r i k chekinish qilib-o'zining istaklarini ifodalaydi. «Birinchii ikki satrda juda yaxshi obraz va ikkinchisida soddagina qilib aytilgan bir samimiylik bor she'rda, shunaqa paytlar ko'p bo'lsin».

Xatning xotima qismida bosh g'oya yanada aniqroq qilib: maktubni yozishdan maqsad nima ekanligi, adabiyotni «baland darajaga ko'tarish..» va boshqa shunday masalalar ifodalanadi.

O'z fikrini «do'stlik maslahatlari» deb hurmat bilan so'zini tugatadi. Bunday olijanoblik va yuksak madaniyat G'.G'ulomning olimlik va insoniylik qiyofasini bezagan. Ko'rinadiki, bu xatning tuzilishi puxta qurilgan, maqsad qisqa va aniq ifodalansa-da, ba'zi jihatlari bilan taqrizga o'xshab ketadi (avval ozgina bo'lsa-da, asarning yutug'ini, keyin kamchiliklarini ko'rsatishiga ko'ra bir qolipga solingan (shablon) taqrizlarni eslatadi), ammo ulardan bevosita murojaat ruhining kuchliligi va qismlarni birlashtiruvchi bo'laklari bilan farq qiladi. Maktubda samimiylik, kuyunchaklik sezilib turadi. Buning ustiga xatdagi tasvir uslubining bir-biriga uyg'unligi, fikrning mazmunli, izchil va ta'sirchan bayoni diqqatga sazovordir. Xatning tuzilishi jihatidan yig'iqligi, asosiy g'oyaning qiziqarli, izchil



ifodalanishi fikrimizning isbotidir. Maktub xalq sevgan o'zbek shoirining olijanob qalbini ko'rsata olishi jihatidan ham ma'lum ahamiyatga ega.

Yozuvchining shunday maktublari borki, ular ko'proq adabiy-tanqidiy yo'sinda bo'lganligi tufayli G'.G'ulomning munaqqid sifatidagi mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, uning "Sadriddin Ayniyning 80-yillik yubileyi tantanalari ishtirokchilarga" maktubi marosimga shaxsan o'zi ishtirok eta olmagan, "yig'ilgan do'stlarining chehrasida o'z muallimi, uzoq yillik qadrmoni ulug' ustodning siymosini yana bir bora ko'ra olmaganidan" afsus chekkan shogirdning qalb izhorlaridir. Unda "zullisonayn ustod" Sadriddin Ayniyning o'lmas ijodidan faxrlanish tuyg'usi kuchli.

Yana bir qator maktublarda zukko va teran nigohli adabiyotshunos, adabiyotning yuksakligi uchun qayg'uruvchi jonkuyar munaqqidning siymosi ko'zga tashlanadi. Shunday maktublardan biri adabiyotshunos Valijon Mirzayevning gazetada e'lon qilingan "Nafasdek tabiiy, rost so'z" maqolasidagi ba'zi mulohazalarga javob tarzida yozilgan bo'lib, adabiyotning muhim masalalariga daxl qilingan².

Shoir Bedil baytlaridan misol keltirish bilan maktubning badiiyligini ta'minlagan, jozibali tili kitobxon diqqatini tortuvchi fazilat kashf etgan. Unda aniqlik, ilmiylik tamoyili kuchli, shu bilan birga o'z fikrida sobitlik va adabiyotga, uning ahliga katta muhabbat sezilib turadi. Ayniqsa, G'.G'ulomning qarashlarida adabiyotning o'lmasligi, shoirlikning bezavolligi haqidagi xulosalari e'tiborlidir.

G'.G'ulom adabiy jarayonni sezgir kuzata turib, o'zbek tanqidchiligining hayotdan ancha orqada qolayotganini, yetuk tanqidsiz badiiy adabiyotning ko'ngildagidek yuksaklikka erisha olmasligini ta'kidlab, bu kemtiklikni to'ldirish niyatida adabiyotning yuksakligi uchun kurashadi. "Yosh shoir Amin Umariyga o'rtoqlik xati" shu munosabat bilan yozilgan. Adabiy-tanqidiy xarakterdagi bu maktubda shoirning uchta she'rini tahlil etib, o'z xulosalarini asoslaydi.

G'.G'ulom yosh shoir ijodiga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondoshadi, «o'zaro bir-birimizga maslahat bersak qalay bo'larkan?» deydi kamtarlik bilan. Maktubni yozishdan

^{2 1} G'.G'ulom. "Mukammal asarlar to'plami". Toshkent- 1990 yil. 4-jild. 197-bet.



maqsadi uch taraflamaligini shunday bayon etadi: "...bir o'quvchi sifati bilan tanqid qilmoqchi, bir shoir sifati bilan o'zimdagi tajribalarni o'rtoqlashmoqchi, va ayniqsa, bir o'rtoq bo'lish bilan "koyimoqchi" bo'laman".

Munaqqid, eng avvalo "shoirning yutuqlari: "Ikki yoshlik" she'rining mazmuni yaxshiligi, syujet jihatidan ham yaxshiligi, ammo anchagina jiddiy kamchiliklarga egaligini ko'rsatib beradi. U shoirni obrazning mantiqiy munosabatlari to'g'risida jiddiy o'ylamaganlikda ayblaydi, "ko'proq til va umuman sifat uchun "koyimoqchi" bo'ladi. Yosh shoirning vazn va qofiyalarga e'tibor qilishi talabchan munaqqidga yoqadi:

"Uhdasidan chiqay vatanim bergan-

Jonu dildan sevgan ulug' qarzimni..

satrlari qanday yaxshi, unda soddagina qilib aytilgan bir samimiyat bor. She'rda shunaqa baytlar ko'p bo'lsin. Shularga qaramay, bu she'rlarda izchil davom yo'q. Ayrim jumlar egasiz..".

G'afur G'ulom shoir sifatida Amin Umariy she'rlaridagi qofiya, vazni buzilgan o'rnlarni birma-bir ko'rsatib beradi. Ko'proq til masalasiga e'tibor qaratishni maslahat beradi. Maktub oxirida yana o'z maqsadini takrorlaydi: "Men bu bilan sizning umuman ijodingizga baho bermoqchi emas edim. Bu adabiyotni baland darajada ko'tarishni, uning badiiy sodda, shu bilan birga san'atcha qunt bilan ishlangan, emotsional bo'lishini istagan bir o'rtoqning samimiy maktubidir". U o'z so'zlarini ijodining yuksalishi uchun Amin Umariyning bu do'stlik maslahatlariga quloq solishiga va yaxshi asarlar berishiga umid bilan tugatadi. Bu maktub bugungi yosh boshlovchi shoirlar va tanqidchilar uchun dasturilamal bo'la olishi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

G'.G'ulom maktublarining eng muhim fazilatlari- qisqalik, aniqlik, mulohazani ochiq-oydin o'ta yuksak madaniyat va kamtarlik bilan bayon etishning ustivorligidir. Ularning matniy qurilishi ham shunga mos. Ko'pchilik maktublar murojaat, baytlar bilan dalillash, fikrlarni asoslash kabi qismlardan iborat.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.G‘ulomning badiiy olami. Kollektiv avtorligida T.: “Fan”. 1974y. 312 b.
2. G‘.G‘ulomning MAT. 12 jildlik T.: “Fan” .1990 y. 538 b.
3. G‘.G‘ulomning MAT. 12-jild T.: “Fan” .1990 y. 538 b.
4. Karimova Y. G‘afur G‘ulom maktublari. T.: JDPI axborotnomasi. Ilmiy-uslubiy jurnal .1-son. 2013. 212 b.
5. Sh.Ahmedova “Maktubot turlari va adabiy tanqid”. Toshkent “FAN”. WWW. Ziyonet. 316 b.